

YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY HAMJIHATLIKNI MUSTAHKAMLASHDA MA'NAVIY MEROSNING O'RNI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15667593>

M.Muxtorov

Sharof Rashidov nomidagi SamDU
falsafa va milliy g'oya kafedrasi dotsenti.
m.muxtorov1953@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash jarayonida milliy va ma'naviy merosning ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquqiy asoslar hamda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik tamoyillari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ilgari surilgan ijtimoiy birdamlik va adolatli boshqaruv g'oyalari zamonaviy jamiyat uchun dolzarbli nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy hamjihatlik, bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, ma'naviy meros, "Qutadg'u bilig", ijtimoiy barqarorlik.

Abstract: This article analyzes the significance of national and spiritual heritage in strengthening social cohesion in New Uzbekistan. In particular, it examines the legal foundations established in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, as well as the principles of interethnic harmony and religious tolerance. Additionally, the ideas of social unity and just governance presented in Yusuf Khass Hajib's work Qutadgu Bilig are analyzed in terms of their relevance to modern society.

Keywords: social cohesion, tolerance, interethnic harmony, religious tolerance, spiritual heritage, Qutadgu Bilig, social stability.

Kirish (Introduction). Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lida ijtimoiy barqarorlik va inson qadrini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda globallashuv, migratsiya, axborot oqimining oshishi va turli ijtimoiy muammolar jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni saqlashni yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosga murojaat qilish, uning ibratli jihatlarini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jamiyat mustahkamligi uchun muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning boy ma'naviy merosi xalqni yagona maqsad sari birlashtirish, birdamlik va o'zaro hurmat muhitini shakllantirishda muhim omildir. Xususan, qadimiy yozma manbalar, diniy va axloqiy qarashlar, milliy qadriyatlar va madaniy an'analar bugungi kun jamiyatida insonlar o'rtaida ishonch va totuvlikni mustahkamlash uchun bebafo manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalqining qadimiy axloqiy tamoyillari insonlar o'rtaсидаги mehr-oqibat va hurmatni targ'ib qiladi. Ma'naviy merosimizda oilaviy qadriyatlar,

qo'shnichilik munosabatlari va jamiyatdagi totuvlikka katta ahamiyat berilgan. Xususan, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Ahmad Yassaviy asarlaridaadolatl jamiyat tushunchasi keng yoritilgan. Bugungi kunda bu qadriyatlar huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ajdodlarimiz ma'naviy merosi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash va o'z tarixidan faxrlanishni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston tarixida turli din va madaniyat vakillari o'rtasida bag'rikenglik hukm surgan. Ajdodlarimiz ma'naviy merosi bu an'anani saqlab qolish va mustahkamlashda muhim omil bo'lib, hozirgi kunda turli millat va din vakillarining bir jamiyatda totuv yashashini ta'minlashga xizmat qiladi.

Metodologiya (Methods). Ushbu maqola Yangi O'zbekistonda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashda ma'naviy merosning o'rnini o'rganish maqsadida qator tadqiqot metodlariga asoslangan holda olib borildi. Tadqiqot quyidagi asosiy usullar yordamida amalga oshirildi: adabiyot tahlili, unda tadqiqot doirasida milliy va xalqaro ilmiy manbalar, tarixiy asarlar, davlat hujjatlari va falsafiy ta'limotlar tahlil qilindi. Xususan, Yusuf Xos Hojibning "*Qutadg'u Bilig*", Alisher Navoiyning "*Mahbub ul-qulub*" asarları, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Prezident qarorları asosida ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarining nazariy asoslari o'rganildi. Shuningdek, zamonaviy sotsiologik va siyosiy tadqiqotlar ham ko'rib chiqildi. Maqolada, tarixiy manbalarda ilgari surilgan ijtimoiy hamjihatlik g'oyalari zamonaviy O'zbekiston siyosati va strategiyalari bilan taqqoslandi. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning boshqaruv va ijtimoiyadolat haqidagi qarashlari bugungi davlat boshqaruvi va ijtimoiy siyosat tamoyillari bilan solishtirildi.

Natijalar (Results). Yangi O'zbekistonda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashda ma'naviy merosning ahamiyatini tasdiqlovchi bir nechta muhim jihatlar mavjud. *Birinchidan*, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Yusuf Xos Hojibning "*Qutadg'u Bilig*" asarida ilgari surilgan ijtimoiyadolat, ijtimoiy tenglik vaadolatli boshqaruv tamoyillari zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy siyosati bilan uyg'unlashadi. Milliy qadriyatlarning jamiyatda o'zaro ishonchni mustahkamlashdagi roli muhim ekanini ko'rish mumkin. Xususan, tarixiy asarlarda ilgari surilgan ijtimoiy birdamlik g'oyalari bugungi davlat boshqaruvi va ijtimoiy islohotlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. *Ikkinchidan*, zamonaviy O'zbekiston jamiyatida ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar milliy qadriyatlar va tarixiy meros asosida shakllanmoqda. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy dasturlar, bag'rikenglik siyosati va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar "*Qutadg'u Bilig*" va *Alisher Navoiy asarlaridagi tamoyillar bilan o'zaro bog'liqligi ko'rish mumkin. *Uchinchidan*, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya dasturlari, aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar jamiyatda barqarorlik va birdamlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Xususan, kam ta'minlangan oilalarga qaratilgan ijtimoiy yordam*

dasturlari, yoshlari va ayollarni qo'llab-quvvatlash choralar milliy qadriyatlar va ijtimoiy adolat tushunchalari bilan bog'liq ekanligini namoyon qiladi. *To 'rtinchidan*, xalqaro tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Singapur va Kanada kabi davlatlarda ham ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni mustahkamlash uchun milliy qadriyatlar va madaniy meros asosida siyosat yuritilmoqda. O'zbekiston taraqqiyot modeli esa o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va tarixiy qadriyatlarni zamonaviy siyosat bilan uyg'unlashtirish orqali rivojlanib bormoqda. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashda ma'naviy meros hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Tarixiy qadriyatlar asosida shakllangan ijtimoiy birdamlik konsepsiysi zamonaviy siyosiy va ijtimoiy islohotlar bilan uyg'unlashib, jamiyatda barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Muhokamalar. Mamlakatimizda ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va diniy bag'rikenglikni rivojlantirish bo'yicha muhim huquqiy asoslar mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolarning teng huquqliligini, e'tiqod erkinligini va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Konstitutsiyaning 35-moddasida: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi", deb belgilangan. Bu norma jamiyatda turli diniy e'tiqodga ega bo'lgan insonlarning huquqlarini hurmat qilish, ular o'rtasida o'zaro hurmat va bag'rikenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. [1.] Shuningdek, 1-modda mamlakatning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligini belgilaydi. Bu tamoyillar davlat boshqaruvi tizimida ijtimoiy adolat, hamjihatlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekistonda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy birdamlikni ta'minlash bo'yicha qabul qilingan qonunlar va dasturlar ham bu borada muhim o'rinn tutadi. [2]

Ijtimoiy hamjihatlik jamiyatda yashovchi turli millat, din va ijtimoiy guruqlar o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan tamoyildir. Bu holat milliy birlik va davlat barqarorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida qabul qilingan qonunlar, davlat dasturlari va turli tashabbuslar hayotga tatbiq etilmoqda. Ijtimoiy barqarorlik esa, jamiyatda tinchlik, millatlararo va konfessiyalararo totuvlik, huquqiy va ijtimoiy tenglik, iqtisodiy barqarorlik hamda fuqarolar o'rtasida o'zaro hurmat va ishonch mavjud bo'lgan holatdir. Bu tushuncha davlatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan barqarorligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aholining turmush darajasi, ijtimoiy ta'minot, huquqiy kafolatlar va madaniy qadriyatlarning rivojlanishiga asoslanadi.

Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni rivojlantirishga yo'naltirilgan tashabbuslar O'zbekiston tarixiy-madaniy merosining ajralmas qismidir.

Ajdodlarimiz, jumladan, Yusuf Xos Hojibning qarashlari ham bu borada muhim ahamiyatga ega. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ijtimoiy birdamlik, adolatli boshqaruva va xalq farovonligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan. Bu asarda davlat boshqaruvi, axloqiy qadriyatlar va jamiyat barqarorligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. A.Muhamedovning tadqiqotlarida “Qutadg‘u bilig” asarining ijtimoiy-falsafiy jihatlari chuqur tahlil qilingan. U o‘z tadqiqotlarida ta’kidlaganidek, Yusuf Xos Hojib bundan ming yil avval yashagan bo‘lib, u diniy va dunyoviy qarashlarni uyg‘unlashtirish, ilm-fan va ta’limni rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish g‘oyasini ilgari surgan. Islom dini jamiyat taraqqiyotiga to’siq emas, balki unga turtki bo‘lgan davrda yashab ijod qilgan Yusuf Xos Hojib olamni ilmiy anglashni, ilm-fanni rivojlantirishni va bu borada hukmdorlar, ziyyolilar va xalq o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashni asosiy maqsad deb bilgan”, deb qayd etadi. [3.111-b.]

O‘zbek davlatchiligi va madaniyatining shakllanishida beba ho manba bo‘lib xizmat qilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari Sharq falsafasi va siyosiy tafakkurining yuksak namunalardan biridir. Ushbu asar nafaqat o‘z davri uchun, balki hozirgi kunda ham ijtimoiy taraqqiyot, davlat boshqaruvi va jamiyat barqarorligini ta’minlash nuqtai nazaridan juda muhim ahamiyatga ega. Unda ilgari surilgan g‘oyalar insoniyat tamadduni uchun umumiyligini qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, ijtimoiy hamjihatlik, adolatli boshqaruva va barqaror jamiyat qurish tamoyillari bilan boyitilgan.

“Qutadg‘u bilig” Sharq falsafiy tafakkuri va axloqiy ta’limotining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asarda insonning axloqiy yetukligi, donolik, adolat va mas’uliyat tushunchalari yuksak darajada talqin etilgan. Asarda davlat rahbari va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, jamiyatni barqaror tutuvchi asosiy qadriyatlar va ma’naviy barkamollikning ahamiyati atroficha ochib berilgan.

Asarning ma’naviy meros sifatidagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: 1) Asarda hukmdor adolatli bo‘lishi kerakligi va xalq farovonligi uchun fidokorona xizmat qilishi lozimligi ta’kidlanadi. 2) “Qutadg‘u bilig” ta’lim, donolik va odobli hayot kechirish insonni yuksak martabaga yetaklashini ko‘rsatadi. 3) Davlat rahbarlari xalq manfaatlarini himoya qilish va ularning ijtimoiy barqarorligini ta’minlash mas’uliyatiga ega ekani qayd etiladi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida hukmdor barcha fuqarolarga adolat bilan munosabatda bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi. Agar jamiyatda adolat hukm sursa, insonlar o‘rtasidagi ishonch mustahkamlanadi va hamjihatlik shakllanadi. Asarda shaxsiy manfaatdan voz kechish, xalq uchun xizmat qilish va jamiyat farovonligini oshirishga urg‘u beriladi. Boylik faqatgina ozchilikning qo‘lida emas, balki jamiyatning umumiyligini rivoji uchun xizmat qilishi lozimligi qayd etiladi. Millatlar va turli tabaqalar o‘rtasida o‘zaro hurmat mustahkamlanishi lozimligi haqida fikr yuritiladi. Hukmdor va fuqaro o‘rtasidagi hamkorlik, jamiyat ichidagi birdamlik asosiy qadriyat sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Ijtimoiy barqarorlik – bu jamiyatdagi tinchlik, iqtisodiy farovonlik va adolat hukm suradigan holat bo‘lib, bu tamoyil Yusuf Xos Hojib asarida keng yoritilgan. Ushbu asarda ijtimoiy barqarorlik ham keng yoritiligan. Ya’ni, hukmdor o‘z xalqining farovonligi va jamiyat tinchligini ta’minlashi shart. Nohaqlik va adolatsizlik jamiyatda beqarorlikka sabab bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan. “Qutadg‘u bilig”da inson mehnati jamiyat barqarorligini saqlashdagi asosiy omil sifatida e’tirof etiladi. Halol mehnat bilan shug‘ullangan jamiyat a’zolari adolatli va farovon hayot kechirishi mumkin. Ijtimoiy barqarorlikning asosiy sharti bu odamlar o’rtasidagi ishonch va birdamlikdir. Agar jamiyat a’zolari bir-biriga ishonch bildirsa, jamiyat mustahkam bo‘ladi va beqarorlik omillari kamayadi, deyiladi.

Xulosa (Conclusion). Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritish bilan birga, kelajak avlodlar uchun ham beba ho ma’naviy meros hisoblanadi. Unda ilgari surilgan ijtimoiy hamjihatlik va barqarorlik g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. O‘zbekistonning bugungi taraqqiyot yo‘lida ushbu tamoyillardan samarali foydalananish jamiyatning yanada barqaror va totuv bo‘lishiga xizmat qiladi. Ma’naviy merosimizni chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish orqali ijtimoiy taraqqiyot va milliy birdamlikni yanada mustahkamlash mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: 2023.
<https://constitution.uz/oz/clause/index#section7>
2. O‘zbekiston ijtimoiy davlat. Yangi O‘zbekiston. Ijtimoiy-siyosiy gazeta. №248 (1309), 2024-yil, 6-dekabr. yuz.uz
3. Мухамедов А.А. Юсуф Ҳожиб илмий меросининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Монография. – Тошкент.: Oltin qalam, 2023. – 134 б.
4. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/yusuf-xos-hojib-1020-1070/>